

2020- yil yanvar-may oylarida O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotda xizmatlar o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi omillar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalariga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

2020- yil yanvar-may oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

- Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.
- Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra,
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**


Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni - 279 886 birlikda

Ularning umumiy sonidagi ulushi - 65,7 %

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari - 115,4 %



2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi - 65,7 %, sanoat - 17,3 %, qurilish - 9,0 % ga yetdi va atigi 8,0 % i

qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi hissasiga to'g'ri keldi.

2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni (40,5 %) egallaydi. Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 9,7 % ni tashkil etdi.



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 5,7 % ga yetdi. Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 3,0 % ga teng bo'ldi. Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,9 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun: 2019- yil 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 242,6 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari – 36,6 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 9,5 %, tashish va saqlash - 6,0 %, axborot va aloqa - 3,1 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,0 % hamda boshqa turdagi xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 41,8 % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 37,3 mingtaga ko'paydi.

Taqqoslash uchun: 2019- yil 1- iyun holatiga ko'ra ularning soni



2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining ko'payishi va o'sishi, % da

(fermerva dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Kuzatilayotgan davrning o'tgan yilga nisbatan savdo faoliyati sohasida yuqori o'sish – 27,5 % ekanligi kuzatildi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 24,4 mingtaga ko'paydi va 113,3 mingtaga yetdi.



Shuningdek, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq faoliyatda ham o'sish kuzatildi - 17,1 %. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 3,9 mingtaga ko'paydi va 27,0 mingtani tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagi bo'lib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish hamda insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2020- yil 1- iyun holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi 77,9 % ga to'g'ri keladi.

Taqqoslash uchun: 2019- yil 1- iyun holatiga ko'ra, ularning ulushi 75,0 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 36 067 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 217 925 tani tashkil etdi va o'sishi esa 19,8 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 60,1 % ga yetdi.

Taqqoslash uchun: o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxonalar va tashkilotlar sonining ulushi 59,8 % ekvivalentida qayd etildi.

Hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining o'rni juda katta ahamiyatga egadir.

Koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish hamda, unga qarshi kurashish maqsadida insonlarning harakatlanishiga cheklovlar kiritish va korxonalar faoliyatini to'xtatish orqali misli ko'rilgan choralar ko'rildi. Bu esa deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish va iste'mol hajmlarining keskin qisqarishiga olib keldi va o'z navbatida xizmatlar sohasining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Natijada, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 80 345,0 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi bor yo'g'i 5 658,7 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 97,9 % ni tashkil etdi.



O'sish sur'ati
97,9 %

Hajmi 5 658,7
mlrd. so'mga
oshdi

Xizmatlar hajmi
80 345,0
mlrd. so'm

Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.


Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**
(2020- yil yanvar-may oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	80 345,0	97,9
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	4 864,0	113,2
Moliyaviy xizmatlar	18 057,0	131,0
Transport xizmatlari	19 566,6	88,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	9 273,7	90,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2 240,5	82,0
Savdo xizmatlari	21 217,2	94,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2 054,3	81,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	2 870,8	98,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1 129,0	82,0
Ijara xizmatlari	1 378,4	84,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	1 054,2	80,8
Shaxsiy xizmatlar	1 642,5	81,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1 639,8	91,1
Boshqa xizmatlar	2 630,7	78,1


2020- yilning yanvar-may oylarida ko'rsatilgan xizmatlar hajmining solishtirma narxlardagi o'sishi moliyaviy xizmatlarda 31,0 foizga (ularning ijobiy ta'siri 29,2 % punktni tashkil etdi), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 13,2 foizga o'sishiga (+ 2,8 % punkt) qaramay, jami ko'rsatilgan xizmatlar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan atigi 97,9 % ni tashkil etdi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining pasayishiga,
xizmat turlari bo'yicha ta'siri, f.p.**



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari jami hajmining pasayishiga asosiy omil bo'lib transport xizmatlarining 11,7 % ga (ularning salbiy ta'siri 13,3 punktga), savdo xizmatlari 5,3 % ga (-6,5 punktga), yashash va ovqatlanish xizmatlari 18,0 % ga (-2,3 punktga), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar 18,3 % ga (-2,2 punktga), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar 18,0 % ga shuningdek, ijara xizmatlari 15,1 % ga pasayishi 1,2 punktga salbiy ta'sir ko'rsatdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da
(2020- yil yanvar-may oylarida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020- yil yanvar-may oylarida ularning ulushi 26,4 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (24,4 %), moliyaviy xizmatlar (22,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (6,0 %) qayd etildi.

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish hajmlarining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,3 % ni tashkil etdi. Shuningdek, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha past ulush qayd etildi - 1,4 %, ijara sohasidagi xizmatlari - 1,7 %, shuningdek me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi, xizmatlarning ulushi 2,0 % dan qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari,
2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan % da
(2020- yil yanvar-may oylarida)**



Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (31,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (13,2 %) qayd etildi.

Xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan bozor xizmatlari hajmi sezilarli darajada (18,3 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish xizmatlari (18,0 % ga), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (18,0 % ga), ijara xizmatlari (15,1 % ga), transport xizmatlari (11,7 % ga), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (8,9 % ga), savdo xizmatlari (5,3 % ga), shuningdek, ta'lim sohasidagi (1,7 % ga) xizmatlarda pasayish kuzatildi.

Transport sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining sezilarli darajada pasayishiga qaramay, xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi ustun bo'lib qolmoqda - 24,4 %.

Transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, % da
(2020- yil yanvar-may oylarida)



Transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 47,4 % ni tashkil etdi.

Transport xizmatlarida quvur yo'li orqali ko'rsatilgan transport xizmatlarining hajmi 20,4 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida, transport xizmatlari umumiy hajmida temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar 16,3 % ga yetdi.

Havo transporti orqali ko'rsatilgan yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarning ulushi 8,0 %, yordamchi transport faoliyati esa – 7,9 % ni qayd etdi.


Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2020- yil yanvar-may oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 26,4 % ni tashkil etib, bu 21 217,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi.


Savdo bu - tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uch qismiga, aniqrog'i 64,5 % iga to'g'ri keladi.


Savdo xizmatlari tarkibi, % da
(2020- yil yanvar-may oylarida)



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)




Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Dastlabki ma'lumotlar

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 29,0 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 6,5 % ni tashkil etdi.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda, chakana savdo bo'yicha xizmatlarning eng katta ulushi Qashqadaryo (85,2 %), Jizzax (83,8 %) va Andijon (83,1 %) viloyatlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida savdo xizmatlarining ulushi, % da
(2020- yil yanvar-may oylarida)



- Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda
- Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Bu ko'rsatkich Toshkent shahrida ahamiyatsiz, uning ulushi 43,4 % ni tashkil etdi. Biroq, Toshkent shahrida ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi sezilarli darajada yuqori bo'ldi - 50,3 %. Andijon viloyatida eng kichik ulush – 10,7 % qayd etildi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda nisbatan yuqori ulush Samarqand (9,1 %), Toshkent (8,5 %), Navoiy (7,8 %) va Farg'ona (7,7 %) viloyatlarida qayd etildi.

Ushbu xizmatlarning eng kichik ulushi Surxondaryo (3,6 %), Jizzax (4,5 %) va Qashqadaryo (4,8 %) viloyatlarida qayd qilindi.

Moliyaviy xizmatlar

(2020- yil yanvar-may oylarida)

**Moliyaviy xizmatlar hajmi
18 057,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.**



**Ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi
22,5 % ni tashkil etdi.**

O'tgan yilning shu davriga nisbatan

**5 055,8 mlrd. so'mga hajmning ko'payishi
kuzatildi.**



Ularning o'sishi 31,0 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.


Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da
(2020- yil yanvar-may oylarida)



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 89,3 % ni tashkil etadi.

Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 6,9 % oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 3,8 % ni tashkil etadi.



Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi Surxondaryo (95,1 %), Sirdaryo (94,5 %), Navoiy (93,8 %), Samarqand (93,6 %), Farg'ona (93,4 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (95,0 %) ahamiyatga ega.

Eng past ko'rsatkich Andijon viloyatida (86,8 %) qayd etildi.


Hududlar o'rtasida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta xizmatlari hajmi Toshkent (8,3 %) va Namangan (8,2 %) viloyatlarida, shuningdek, Toshkent shahrida (8,8 %) ustunlik qiladi.

Sug'urta xizmatlarining eng past ko'rsatkichlari Andijon (3,0 %), Surxondaryo (3,5 %), Samarqand (3,8 %) va Farg'ona (3,8 %) viloyatlarida, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasida (3,2 %) kuzatildi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2020- yil yanvar-may oylarida)




2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan

2020- yil yanvar-may oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 4 864,0 mlrd. so'm darajasida belgilandi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 113,2 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmdagi ulushi 6,0 % ni tashkil etdi.

AKTdan faol foydalanish infratuzilmasi yuqori kadrlar salohiyati va yangi ko'rinishdagi texnika va texnologiyalarga asoslangan.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da
(2020- yil yanvar-may oylarida)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 79,6 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 6,7 %, boshqa aloqa xizmatlari - 4,8 %, noshirlik xizmatlari - 4,5 % va axborot sohasidagi xizmatlar - 4,4 % ni tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.




Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020- yil yanvar-may oylarida)



2020- yil yanvar-may oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 2 870,8 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 3,6 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 98,3 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlarning hajmi, mlrd. so'm (2020- yil yanvar-may oylarida)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning yuqori hajmi Samarqand (240,6 mlrd. so'm), Toshkent (180,0 mlrd. so'm), Buxoro (174,5 mlrd. so'm), Farg'ona (168,3 mlrd. so'm) viloyatlari va Toshkent shahrida (1 149,7 mlrd. so'm) qayd etildi.

Nisbatan past ko'rsatkichlar Sirdaryo (40,9 mlrd. so'm), Navoiy (69,6 mlrd. so'm), Jizzax (74,9 mlrd. so'm), Surxondaryo (109,6 mlrd. so'm) va Xorazm (111,5 mlrd. so'm) viloyatlarida belgilandi.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020- yil yanvar-may oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 82,0 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 2 240,5 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 2,8 % ni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi



2 240,5 mlrd. so'm



Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi
412,2 mlrd. so'm



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar hajmi
1 828,3 mlrd. so'm

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020- yil yanvar-may oylarida)

81,6 %



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

Yashash bo'yicha
xizmatlar



18,4 %

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 81,6 % bilan ustunlik qiladi.

2020- yil yanvar-may oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 18,4 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
(2020- yil yanvar-may oylarida)


2020- yil yanvar-may oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 1 129,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiy hajmida ularning ulushi 1,4 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 82,0 % ni tashkil etdi.



Xizmatlar hajmi	1 129,0 mlrd. so'm
O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati	82,0 %
Xizmatlarning jami hajmidagi ulushi	1,4 %

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida hududlar ulushini taqqoslanishi, % da




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi yuqori - 44,0 %. Shu bilan birga, nisbatan yuqori ulush Toshkent (9,7 %), Farg'ona (6,8 %), Samarqand (5,8 %) viloyatlarida qayd etildi.

Joriy davrda ushbu ko'rsatkichning ulushi nisbatan katta bo'lmagan hududlar Sirdaryo (1,6 %), Navoiy (2,2 %), Jizzax (2,3 %), Surxondaryo (3,0 %) va Xorazm (3,2 %) viloyatlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi (2,1 %) hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar, iste'molchilarning daromad darajasi, didi va xohish-istaklariga qarab differensiyalanadi.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da
(2020- yil yanvar-may oylarida)



Xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 37,5 % ni tashkil etadi. Bu aholining real daromadlari boshqa viloyatlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.


Shuningdek, eng katta ulush Toshkent (7,2 %), Samarqand (6,1 %), Farg'ona (5,8 %) va Andijon (5,2 %) viloyatlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining nisbatan past ko'rsatkichlari Sirdaryo (1,4 %), Jizzax (2,2 %), Navoiy (2,5 %), Xorazm (2,9 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (2,8 %) kuzatildi.

Ma'lumot uchun: 2019- yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi 35,5 % ni tashkil etgan.

Sirdaryo viloyatining ulushi esa eng past ekanligi - 1,3 % kuzatilgan.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da (2020- yil yanvar-may oylarida)



Ushbu davrda nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (101,4 %), Andijon (101,3 %) viloyatlarida va Toshkent shahrida (102,1 %) qayd etildi.

O'sish sur'atlarining pasayishi Samarqand (5,1 % ga), Qashqadaryo (4,5 % ga), Toshkent (4,1 % ga), Farg'ona va Namangan (4,0 % ga) viloyatlarida kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Ko'rilayotgan davrda resurslardan samarali foydalanish natijasida hududlar bo'yicha Toshkent shahri ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmini o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 612,0 mlrd. so'mga oshdi va 30 134,8 mlrd. so'mga yetdi.

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari
(2020- yil yanvar-may oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da	Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm
O'zbekiston Respublikasi ^{*)}	80 345,0	97,9	2 365,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 240,9	96,5	1 178,8
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	4 160,3	101,3	1 327,6
Buxoro	3 337,1	97,3	1 732,2
Jizzax	1 766,8	101,1	1 275,4
Qashqadaryo	3 481,5	95,5	1 059,2
Navoiy	2 041,8	100,2	2 044,2
Namangan	3 011,5	96,0	1 069,3
Samarqand	4 880,8	94,9	1 256,3
Surxondaryo	2 841,3	96,5	1 078,3
Sirdaryo	1 117,8	101,4	1 318,1
Toshkent	5 804,8	95,9	1 969,9
Farg'ona	4 686,3	96,0	1 246,7
Xorazm	2 299,9	96,4	1 230,4
Toshkent shahri	30 134,8	102,1	11 683,3

^{*)} Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmlarni qo'shgan holda

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Toshkent (5 804,8 mlrd. so'm), Samarqand (4 880,8 mlrd. so'm), Farg'ona (4 686,3 mlrd. so'm) va Andijon (4 160,3 mlrd. so'm) viloyatlarida qayd etildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020- yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2 365,1 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 96,1 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi -
2 365,1 ming so'm

2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan



Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ijobiy natijalari xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal etishda uning rolini oshirish bilan uzviy bog'liqdir.

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi

71-230-80-59